



No5(4)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 322 sahifa,
18-may, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woosyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oğlu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

O'quvchi yoshlarni muhandislik kasblariga yo'naltirishda xorij tajribasi.....	10
<i>Maxamov X. T., Omondavlatova Sofiya Baxtiyor qizi</i>	
2-sinf darslarida "4K" ko'nikmalarini shakllantirish: XXI asr savodxonligi poydevori	14
<i>Jo'rayeva Nargiza O'ktamovna</i>	
Ommaviy axborot vositalarining inson ruhiy salomatligiga ta'siri: empirik tadqiqot natijalari.....	18
<i>Abdinazarova Bibixonim Rashid qizi</i>	
Talabalar uchun amaliy ko'nikmalarni shakllantirishda texnik loyihalarning o'rni	23
<i>Axmadaliyev Mansurbek Erkaboy o'g'li, Rejabov Jaloliddin Sadiq o'g'li</i>	
Masalalarni modellashtirish metodi yordamida yechish yo'llari	28
<i>B. B. Qarshiyev, Bekmuradov Bobur Toyloq o'g'li</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotida elektron o'quv materiallaridan foydalanishning afzalliklari.....	34
<i>Tog'aymurodova Marjona Yusuf qizi</i>	
Raqamli ta'lim muhitida dizaynerlik faoliyatlarini rivojlantirishning zamonaviy metodlari.....	39
<i>Satvoldiyeva Malaxatxon A'zamjanovna</i>	
Metall va metallmas buyumlarga ishlov berish texnologiyasi fanidan amaliy dars mashg'ulotlarini raqamli texnologiyalar asosida o'qitish metodikasi	47
<i>A. Safarov</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tanqidiy fikrlashni shakllantirish mezonlari.....	57
<i>Xolmatov Doston Dilshod o'g'li</i>	
7–8-sinf biologiya darslarida kompetensiyaviy yondashuvni takomillashtirish metodikasi	60
<i>Xolmurodova Sarvinov</i>	
Zamonaviy adabiyotda lider ayol portreti va shaxsiy rivojlanish falsafasi.....	64
<i>G'afforova Dildora Ergashevna</i>	
Boshlang'ich sinf o'qish darslarida matn ustida ishlash metodikasini takomillashtirishning pedagogik asoslari.....	69
<i>Yusupova Umida Zayniddin qizi</i>	
Umumta'lim maktabida xalq hunarmandchiligi va badiiy loyihalashda kreativ yondashish texnologiyalarining mazmun-mohiyati.....	74
<i>Shomirzayev Maxmatmurod Xuramovich, G'aniyeva Dilfuza A'lam qizi</i>	
Oila muhitining raqamli tadbirkorlik motivatsiyasiga ta'siri: psixologik tahlil	78
<i>Tursunov Lutfulla Sayfullayevich, Boyqobilova Sevinch Fazliddin qizi</i>	
Maktab va muzeylar aloqadorligini ta'minlash asosida o'quvchilarni ma'naviy merosga hurmat ruhida tayyorlashning pedagogik texnologiyasi	81
<i>Nizomxonova Nargizaposhsho Ekrixon qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida produktiv o'qish malakasini shakllantirish.....	86
<i>Xurramova Sojida Abdunazar qizi</i>	
Oliy ta'lim tizimida liderlik kompetensiyalarini takomillashtirishning kompleks yondashuvlari	91
<i>Risvayeva Charos Zaydilla qizi</i>	
Sport sohasining ommaviyligi va inklyuzivligi	94
<i>Z. N. Urunova, M. Jaborova</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida psixologik muhitni swot-tahlil qilish va korreksiyalash	97
<i>Sattorova Shirinoy San'atovna</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kognitiv kompetentligini rivojlantirishda integrativ yondashuv ..	100
<i>Buvrayev Akram Rustam o'g'li</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy nutqiga qo'yiladigan talablar	104
<i>Xolmuminova Dilfuza Xolmamatovna</i>	
O'qituvchining kasbiy faoliyatida ma'naviy-axloqiy fazilatlarining ahamiyati	107
<i>Jumanazarova Dilnoza Umurzaqovna</i>	



Hadislar yordamida boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirish	111
<i>Akaboyeva Malika Raxmatovna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini mustaqil fikrlashga o'rgatish texnologiyasi	114
<i>Beshimova Muazzam Bahodirovna, To'lanboyeva Farangis Ibrohimjon qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilariga ona tili fanini o'qitishda kreativlik qobiliyatini rivojlantirishning pedagogik-psixologik shart-sharoitlari	117
<i>Xoliyeva Sevara Rustam qizi</i>	
Bo'lajak tarbiyachilarning maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishda multimedia texnologiyalaridan foydalanish kompetensiyasini tarkib toptirish	122
<i>Narmatova Fotima Dilshod qizi</i>	
Organizing Physics Lessons in General Education Schools Based on Gamification Elements	127
<i>Y. A. Mamatokhunov, U. S. Ismoilov, M. A. Muxtorjonova</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda mantiqiy tafakkurni rivojlantirishda didaktik o'yinlarning samaradorligi....	129
<i>Meyliyeva Sevinch Bozor qizi</i>	
Anoreksiyasi va bulimiyaniing psixologik determinantlari hamda klinik jihatlarini	132
<i>Askarova Nargiza Abdivaliyevna, To'raqulova Sevinch Sattorjon qizi</i>	
Koxlear implantli bolalar fonematik eshituvini shakllantirish asosida tovush talaffuzini shakllantirish	136
<i>Bozorov Otabek Yo'ichi o'g'li, Yakubova Asalxon Ulug'bek qizi</i>	
Qisqa masofaga yuguruvchi yosh sportchilarning kuch va tezlik-kuch ko'rsatkichlarini rivojlantirishda yillik rejalashtirish samaradorligi	139
<i>Eshpulatov Jamshid Nuraliyevich</i>	
Разработка модуля автопрокторинга для платформ дистанционного обучения на основе компьютерного зрения и анализа активности пользователя	144
<i>Дустқобилов Акмал Бобомуродович</i>	
Определение нарушений академической честности на онлайн-экзаменах на основе компьютерного зрения: алгоритм и эффективность модуля kameraproctor	149
<i>Дустқобилов Акмал Бобомуродович, Маматов Ислонбек Ильесович</i>	
Zamonaviy ta'limda sun'iy intellekt texnologiyalari: imkoniyatlar, muammolar va istiqbollar	154
<i>Delov To'liqin Erkinovich, Gulmirzayeva Zulayho Ko'k'lanboy qizi</i>	
Ijtimoiy tarmoqlarning talaba yoshlar psixologiyasiga ta'siri	160
<i>Saidakbarova Nigora Abduraxim qizi</i>	
Talabalarni ijtimoiy-pedagogik faoliyatga tayyorlashning besh blokli pedagogik modeli	165
<i>Amonov Mirjon Namozovich</i>	
O'smirlarning raqamli texnologiyalarga qaramligi va uning psixologik salomatlikdagi o'rni	170
<i>Nurmatov Nurhayot Nurziyot o'g'li, Normamatova Aziza Ibroxim qizi</i>	
Qizlarda erta nikohning psixologik omillari va sabablari	174
<i>Sodiqova Gulbarno Odiljon qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'quv motivlarini shakllantirishning pedagogik imkoniyatlari	178
<i>Jumayeva Guzal Xayriddin qizi</i>	
Maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalarda barmoqlar harakati mashqlari asosida kichik motorika va harakat koordinatsiyasini rivojlantirish	183
<i>Mirzakarimov Yuldashboy Abdinabiyeich</i>	
Globalashuv sharoitida yoshlar tashkilotlari orqali milliy o'zlikni anglashni shakllantirishning pedagogik strategiyalari	187
<i>Axralova Marg'uba Akmalxanovna</i>	
Tarbiya fani asosida o'quvchilarda huquqiy kompetentlikni rivojlantirish imkoniyatlari	191
<i>Jumanova Xafiza Xoliqulovna</i>	
Zamonaviy ilmiy-texnika taraqqiyoti sharoitida texnologik ta'lim mazmunini STEM yondashuvi asosida integratsiyalash va talabalarning texnik fikrlash kompetensiyasini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish	196
<i>Imanov Baxtiyor Berdiyevich, Qulmamatova Xurshida Abduxamidovna, Barataliyeva Nasiba Maxmadaminovna</i>	
Ijodiy kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan o'quv jarayonining mazmuniy ta'minoti	202
<i>Kubayeva Mavluda Baxtiyor qizi</i>	

The Influence of a Competency-Based Approach on Educational Quality in Physics Instruction	205
<i>A. Xakimov, Yorqinjon Abduraimjanovich Mamatokhunov, M. A. Ne'matova</i>	
Umumta'lim maktablarida o'quvchilarning ekologik savodxonligini shakllantirishning amaliy holati	208
<i>Majitov Turg'unali Anvar o'g'li</i>	
Maktabgacha ta'lim tarbiyalanuvchilariga ingliz tilini o'rgatishning pedagogik va psixologiyistik xususiyatlari	214
<i>Ismoilova Muattar Ilyosovna</i>	
Sharq mutafakkirlarining yoshlarni mehnat va kasb-hunarga o'rgatish bo'yicha qarashlari	219
<i>Alqarov Qodir Xolmatovich, Irmatov Pirmuhammad Normat o'g'li</i>	
Metallar mavzusini interfaol metodlar asosida o'qitish orqali o'quvchilar kreativligini oshirish	222
<i>Murodova Sayyora Qanoatovna</i>	
Moliyaviy terminlarni tarjima qilishning metodologik muammolari	226
<i>Norboyeva Dilafuz Djumaqulovna, Suvonov Ozodbek Jamshid o'g'li</i>	
Oliy ta'lim muassasalarida yakuniy nazorat jarayonlarini sun'iy intellekt texnologiyalari asosida tashkil etishning afzalliklari	230
<i>Abdunabiyeva Kamola Mansurovna</i>	
Pedagogik ta'limda AI-tutor texnologiyalaridan foydalanish: o'zaro ta'sir mexanizmi va samaradorlik tahlili	236
<i>Abdunabiyeva Maftunaxon Solijon qizi</i>	
Talabalarda prokrastinatsiyani kamaytirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari	240
<i>Kozimov Sayfullah Maxammadjon o'g'li</i>	
Kompetensiyaviy yondashuv asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'quv-bilish faoliyatini rivojlantirish	245
<i>Raximov Zokir Toshmirovich</i>	
Yosh voleybolchilarning umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarliklarini oshirishning pedagogik asoslari	249
<i>Temirov Shoirbek Raimjonovich</i>	
Oliy ta'lim muassasalarida boshqaruv jarayonlari mexanizmlarini takomillashtirish	253
<i>Kimsanova Rahnamo Solijonovna</i>	
Milliy kurash vositasida yoshlarning irodaviy sifatlarini rivojlantirish	257
<i>Muratov Muzaffar Shermamatovich</i>	
Xavotirlanish muammosining psixologik-pedagogik adabiyotlarda o'rganilganligi va o'smirlik davrining psixologik xususiyatlari	261
<i>Mutalibjonov Nurillo Iroiljon o'g'li</i>	
Bo'lajak pedagoglarda kreativ tafakkurni rivojlantirishning innovatsion va refleksiv asoslari	264
<i>Oblayeva Lobar Erdonovna</i>	
STEM Education Technology: Physics Teaching Methodology and Future Innovations	268
<i>Yorqinjon Abduraimjanovich Mamatokhunov, Odinakhon Sotvoldiyeva Abdumannob qizi</i>	
Mustaqil ta'limni tashkil etishning nazariy asoslari	272
<i>Qurbonova Buzaynab Nurmuxammadiyevna</i>	
Maktabgacha tarbiya yoshda bolalar kognitiv sohasining tadqiq qilinishi	276
<i>Raxmonova Shaxrizoda Laziz qizi</i>	
Modernization of Physics Teaching Methodology Based on Stream Integration in Vocational Schools	279
<i>S. Z. Zaynobiddinov, Yorqinjon Abduraimjanovich Mamatokhunov, Z. M. Orifjonova</i>	
Cultural Competence as a Core Component of Foreign Language Teaching: Theoretical Foundations and Pedagogical Integration	282
<i>Shahlo Obidova</i>	
Pedagogika oliy ta'lim muassasalarida talabalarining akmeologik madaniyatini rivojlantirishda ART-pedagogik texnologiyalardan foydalanish	286
<i>Shodmonova Shoir Saidovna, Sharifova Dildora Shavkiddin qizi</i>	
Talabalarining to'garak mashg'ulotlari orqali ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish yo'llari	290
<i>Turakulova Feruza Mamadoli qizi</i>	



Boshlang'ich sinf o'quvchilariga ona tili fanini o'qitishda kreativlik qobiliyatini rivojlantirishning pedagogik-psixologik shart-sharoitlari	294
<i>Xoliyeva Sevara Rustam qizi</i>	
Texnologiya darslarida raqamli texnologiyalar vositasida o'quvchilarning tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish metodikasi.....	298
<i>Xudoyberdiyeva Nilufar Raximqulovna</i>	
Umumta'lim maktablari musiqa darslarida media-kontentlardan foydalanib o'quvchilarda estetik didni shakllantirish.....	302
<i>Xudoyqulov Asilbek Aziz o'g'li</i>	
Педагогические стратегии профилактики раннего профессионального выгорания у студентов-медиков (в условиях высокой информационной нагрузки)	305
<i>Асророва Мафтунабегим Махаммадризо кизи</i>	
Формирование самоотношения у подростков, переживших насилие	308
<i>Кушакова Наргиза Исламбаевна, Азаркова Миланика Дмитриевна</i>	
Изучение развития эпистемических знаний у учащихся 5-го класса в педагогико-психологической литературе.....	311
<i>Нехочина Лола Шахобиддиновна</i>	
Когнитивные уровни читательской деятельности в заданиях PIRLS: типология, процессы понимания и система оценивания.....	314
<i>Нуруллаева Шахло Уктамовна, Александра Валерьевна Шаркова</i>	

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTIDA ELEKTRON O'QUV MATERIALLARIDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI

Tog'aymurodova Marjona Yusuf qizi

Samarqand davlat pedagogika instituti,
pedagogika fakulteti ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
(maktabgacha ta'lim) kafedrası magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotida elektron o'quv materiallari va mobil ilovalarni pedagogik jarayonga integratsiya qilishning didaktik, metodik va tashkiliy asoslari tahlil qilinadi. Metodologiya sifatida tizimli yondashuv, dizayn asosli tadqiqot mantiqi, pedagogik tajriba elementlari, kontent-tahlil va ekspert baholash usullari ko'rsatib o'tilgan. Maqolada tarbiyachi kompetensiyalarini belgilash, ota-onalar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish va baholash indikatorlarini aniqlash bo'yicha tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim; elektron o'quv materiallari; mobil ilovalar; didaktik integratsiya; raqamli pedagogika; media savodxonlik; baholash indikatorlari.

Abstract: This article analyzes the didactic, methodological, and organizational foundations for integrating electronic educational materials and mobile applications into the pedagogical process of preschool educational organizations. The research methodology is based on a systematic approach, design-based research (DBR) logic, elements of pedagogical experimentation, content analysis, and expert evaluation methods. The article provides recommendations for defining educator competencies, establishing collaboration with parents, and identifying key performance indicators for evaluating the effectiveness of digital integration.

Key words: preschool education; electronic learning materials; mobile applications; didactic integration; digital pedagogy; media literacy; learning analytics indicators.

Аннотация: В данной статье анализируются дидактические, методические и организационные основы интеграции электронных образовательных материалов и мобильных приложений в педагогический процесс дошкольных образовательных организаций. В качестве методологии использованы системный подход, логика дизайн-ориентированного исследования, элементы педагогического эксперимента, контент-анализ и методы экспертной оценки. В статье представлены рекомендации по определению компетенций воспитателей, налаживанию взаимодействия с родителями и установлению системы индикаторов оценки эффективности процесса.

Ключевые слова: дошкольное образование; электронные учебные материалы; мобильные приложения; дидактическая интеграция; цифровая педагогика; медиаграмотность; индикаторы оценивания.

KIRISH

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida raqamli resurslardan foydalanish masalasi so'nggi yillarda alohida metodik yo'nalish sifatida shakllanib, endilikda u faqat texnik ta'minot yoki vizual jozibadorlik bilan izohlanmaydigan murakkab pedagogik muammo sifatida qaralmoqda. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun elektron o'quv materiallari va mobil ilovalar bir vaqtning o'zida bir necha vazifani bajaradi: ular faoliyatni motivatsiyalash, ko'rgazmalilikni oshirish, takrorlash va mustahkamlashni individuallashtirish, nutqiy muloqotni qo'llab-quvvatlash hamda sensor-motor tajribani boyitishga xizmat qiladi. Biroq ayni resurslar o'quv jarayoniga ilmiy asoslanmagan tarzda qo'shilganda kognitiv ortiqcha yuklama, e'tiborning tarqoqlashuvi, ekran vaqti me'yorlarining buzilishi, mazmunning didaktik maqsadga mos kelmasligi kabi xavflar paydo bo'ladi. Shuning uchun muammo markazida "qanday ilova kerak" yoki "qaysi platforma qulay" degan texnik savollar emas, balki "raqamli resurslar maktabgacha ta'limning maqsad va mazmuniga qanday xizmat qiladi, qanday sharoitda va qanday mezonlar asosida samarali bo'ladi?" degan didaktik savollar turadi.

Xalqaro adabiyotlarda erta yoshdagi bolalar uchun raqamli texnologiyalarni qo'llash masalasi o'yin asosidagi o'qitish, multimodal o'rganish, kooperativ faoliyat hamda oila va ta'lim tashkiloti hamkorligi doirasida talqin qilinadi. Ayrim tadqiqotlar mobil ilovalar til o'rganish va fonematik eshituvni qo'llab-quvvatlashini ko'rsatgan



bo'lsa, boshqa tadqiqotlarda natija ko'proq pedagogik ssenariy sifatiga, kattalarning vositachilik roliga va kontentning rivojlantiruvchi xususiyatiga bog'liqligi ta'kidlanadi. Shuningdek, maktabgacha yoshda ekran vositalaridan foydalanish bo'yicha tavsiyalar va ehtiyoj choralarini belgilovchi professional pozitsiyalar mavjud bo'lib, unda "faqat vaqt" emas, balki "mazmun sifati" va "hamkorlikdagi foydalanish" mezonlari ham asosiy omil sifatida ko'rsatiladi.

Mintaqaviy va milliy kontekstda esa masala tarbiyachilarning raqamli kompetensiyasi, metodik ta'minot, o'quv dasturi bilan uyg'unlik hamda resurslarning til va madaniyatga mosligi bilan bog'liq holda qo'yiladi. Shu bilan birga, elektron o'quv materiallarini tanlash va ularni mashg'ulot, erkin o'yin hamda kundalik rejim jara-yonlariga integratsiya qilish bo'yicha yagona, amaliyotga yo'naltirilgan metodik ramka yetarlicha tizimlashtiril-magan.

Ushbu tadqiqotning maqsadi maktabgacha ta'lim tashkilotida elektron o'quv materiallari va mobil ilova-lardan foydalanishning integratsion modelini ishlab chiqish hamda uning samaradorligini ta'minlaydigan mezon va indikatorlar majmuasini asoslashdan iborat. Vazifalar quyidagilardan tashkil topadi: maktabgacha yosh uchun elektron materiallarning didaktik talablari va tanlash mezonlarini aniqlash; mobil ilovalardan foydala-nishning bosqichma-bosqich pedagogik ssenariylarini tavsiflash; tarbiyachi, bola va ota-onalar ishtirokidagi hamkorlik mexanizmini belgilash; natijalarni monitoring qilish uchun o'lchab bo'ladigan indikatorlar to'plamini taklif etish.

Ilmiy yangilik elektron materiallar mazmuni, interaktivlik dizayni va gigiyenik-me'yoriy cheklavlarni yagona integratsion ramkada birlashtirish, shuningdek, maktabgacha ta'limning o'yin, muloqot va faoliyatga tayangan tabiati bilan mos metodik ssenariylarni aniq strukturada berish orqali asoslanadi. Amaliy ahamiyat esa ta'lim tashkiloti sharoitida resurs tanlash, darsdan tashqari rejimda qo'llash, ota-onalarni yo'naltirish va baholashni yo'lga qo'yishga xizmat qiladigan metodik yechimlar bilan belgilanadi. Maqolada yondashuvlar tahlili va modelni asoslashda zamonaviy pedagogik qarashlar hamda metodik adabiyotlardan tayanch manba sifatida foydala-niladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Axborot texnologiyalarini rivojlantirmasdan turib, hech qaysi sohada yuqori natijalarga erishib bo'lmaydi. Shu bois IT sohasini qo'llab-quvvatlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib qoladi". "Kompyuter va axborot texnologiyalari imkoniyatlari turmushimizni yengillashtirishi bilan bir qatorda, hayotimizning ajralmas qismiga aylanib, jamiyatning barcha jabhalariga chuqur singib bormoqda.

Shu jumladan, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim-tarbiya jarayoni samaradorligini oshirishda, zamonaviy va intellektual salohiyatli kadrlarni tayyorlashda elektron o'quv materiallaridan foydalanish yuqori natija bermoqda. Ayniqsa, bog'cha yoshidagi bolalarning ta'limiy mashg'ulotlarini elektron o'quv materiallari hamda multimedia vositalari imkoniyatlaridan foydalangan holda tashkil etish bolalarning dunyoqarashini kengaytirishda va ko'zlangan pedagogik maqsadlarga erishishda kutilgan samarani ta'minlaydi".

"Mamlakatimiz taraqqiyoti hamda ta'lim sohasida o'tkazilayotgan islohotlar jahon andozalariga mos, mustaqil va yuqori darajada fikrlaydigan kadrlarni tayyorlashni taqozo etadi. Bu esa o'qitishni ham mazmun, ham uslub jihatdan yuqori pog'onaga ko'tarishni, ayniqsa, ta'lim tizimining birlamchi bo'g'ini hisoblangan maktabgacha ta'lim jarayonini zamon talablari asosida takomillashtirishni talab qiladi. Shu munosabat bilan maktabgacha yoshdagi bolalarning intellektual salohiyatini oshirishga qaratilgan izlanishlar va ta'limga axborot texnologiyalarini joriy etish bugungi davrning kechiktirib bo'lmaydigan vazifalaridan biridir".

TADDIQOT METODOLOGIYASI

Respublikamizda keyingi yillarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi bilan bog'liq holda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida mashg'ulotlarni tashkil etishning mutlaqo yangi va innovatsion shakl-lari yuzaga kelmoqda. Respublikamiz ta'lim tizimini yanada rivojlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son¹ "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmonida "sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozo-rining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash, zamonaviy o'quv-laboratoriya asboblari, kompyuter texnikasi va o'quv-metodik qo'llanmalar bilan jihozlash" kabi ustuvor vazifalar belgilangan.

Mazkur vazifalar ijrosini ta'minlashda maktabgacha ta'lim jarayoniga elektron o'quv materiallarini tatbiq etish alohida ahamiyat kasb etadi. Xususan, mitti yoshdagi bolalar uchun tushunilishi qiyin bo'lgan tushunchalar, tabiat hodisalari va atrof-muhit haqidagi bilimlar elektron darsliklar, interaktiv o'yinlar, animatsiyalar hamda multimedia taqdimotlari vositasida ko'rgazmali tarzda tushuntiriladi. Maktabgacha ta'lim tizimiga kompyuter

1 <https://lex.uz/docs/-3107036>

texnologiyalarini qo'llash va ular asosidagi multimedia vositalaridan foydalanish bolalarning kognitiv rivojlanishi hamda psixologik tayyorgarligi nuqtai nazaridan katta ahamiyatga ega bo'lib, ta'lim samaradorligini sezilarli darajada oshirishga xizmat qiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot dizayni nazariy-tahliliy va dizayn asosli tadqiqot mantiqini uyg'unlashtirgan holda qurildi.

Birinchi bosqichda manbalar korpusi shakllantirildi: maktabgacha ta'lim metodikasi, raqamli pedagogika, erta yoshdagi bolalar uchun media muhiti va mobil o'rganish bo'yicha ilmiy nashrlar, shuningdek, amaliy qo'llanmalar va me'yoriy tavsiyalar tahlil qilindi. Kontent-tahlil usuli orqali elektron o'quv materiallari va mobil ilovalar tarkibidagi didaktik birliklar, interaktiv elementlar, rag'batlantirish mexanizmlari, til birliklarining to'g'riligi, yoshga moslik ko'rsatkichlari va xavfsizlik komponentlari kodlandi.

Ikkinchi bosqichda dizayn asosli tadqiqot yondashuvi doirasida integratsion model prototipi ishlab chiqildi: u mashg'ulot jarayoniga qo'shish, markazlarda erkin faoliyat, yakka tartibda mustahkamlash hamda oila bilan hamkorlikdagi foydalanish ssenariylarini qamrab oldi.

Uchinchi bosqichda ekspert baholash amalga oshirildi: maktabgacha ta'lim metodistlari va tajribali tarbiyachilar elektron resurslarni tanlash mezonlari hamda indikatorlar tizimini relevantlik, o'lchanish imkoniyati va amaliy qo'llash nuqtayi nazaridan baholadilar.

Metodologik tanlovning asosi shundan iboratki, maktabgacha ta'limda "ta'sir" ko'pincha murakkab va kontekstga bog'liq bo'lib, faqat kvaziekspperimental o'lchovlar bilan emas, balki pedagogik ssenariylar sifatini tahlil qilish orqali ham ishonchli tushuntiriladi. Yondashuvda bolalar rivojlanishining yaqin rivojlanish zonasi va kattalar vositachiligi g'oyalariga tayangan metodik qarashlar ham e'tiborga olindi. Raqamli resurslar samaradorligini baholashda esa o'quv jarayoni natijalari bilan bir qatorda jarayon ko'rsatkichlari, xususan, ishtirok, mustaqillik, muloqot zichligi va xatolar bilan ishlash dinamikasi indikator sifatida tanlandi. Maktabgacha ta'lim tashkilotida elektron o'quv materiallari va mobil ilovalarni qo'llash uchun integratsion model taklif etildi; u uch qatlamli tuzilma sifatida tavsiflanadi: didaktik-mazmuniy qatlam, pedagogik-ssenariy qatlam va me'yoriy-xavfsizlik qatlam.

Didaktik-mazmuniy qatlam bo'yicha elektron materiallarning minimal talablari belgilandi:

- maqsadning aniqligi va o'quv dasturi yo'nalishlari bilan mosligi;
- topshiriqlar ketma-ketligining oddiydan murakkabga tamoyili;
- ko'rgazmalilikning semantik asoslanganligi;
- nutqiy namunalar va terminlarning adabiy me'yorlarga mosligi;
- ijobiy va neytral rag'batlantirishdan foydalanish;
- reklama va tashqi havolalarning yo'qligi.

Interaktivlik dizayni bo'yicha "faol javob" talabi ajratildi, ya'ni bola faqat bosib o'tmaydi, balki tanlash, moslashtirish, taqqoslash, guruhlash, tovushlarni farqlash yoki hikoya tuzish kabi kognitiv amallarni bajaradi. Shuningdek, xatoni "jazolovchi" emas, balki "yo'naltiruvchi" qayta aloqa orqali tuzatish mexanizmi samaradorlik sharti sifatida qayd etildi.

Pedagogik-ssenariy qatlamda mobil ilovalardan foydalanishning to'rt tipik holati ajratildi.

Birinchi holat mikrointegratsiya bo'lib, 5-7 daqiqalik qisqa raqamli epizodlar mashg'ulotning kirish yoki mustahkamlash qismiga kiritiladi va u ko'rgazmali model, audio namunalar yoki tezkor diagnostika vazifasini bajaradi.

Ikkinchi holat markazlar bo'yicha faoliyatda integratsiya bo'lib, raqamli resurs konstruktorlik, tasviriy faoliyat yoki til markazidagi amaliy ishni to'ldiradi; bunda ekran faoliyati albatta predmetli harakat bilan almashinadi.

Uchinchi holat individual yo'nalish bo'lib, fonematik eshituv, lug'at boyligi yoki son-miqdor tasavvurlarida qiyinchilik kuzatilgan bolalar uchun differensial topshiriqlar beriladi.


To'rtinchi holat oila bilan hamkorlikdagi foydalanish bo'lib, tarbiyachi ota-onalarga haftalik tavsiya ssenariysi, kuzatuv savollari va birgalikda o'ynaladigan mini-vazifalar paketini taqdim etadi.

Bu holatlarda tarbiyachining roli nazoratchi emas, fasilitator sifatida belgilandi: u vazifani tushuntiradi, muloqotni rag'batlantiradi, bolaning strategiyasini kuzatadi va qisqa refleksiya savollari bilan faoliyatni yakunlaydi.

Me'yoriy-xavfsizlik qatlamida raqamli faollikning gigiyenik va pedagogik cheklovlari parametrlar sifatida kiritildi. Ekran bilan ishlash epizodlari uzluksiz davom etmasligi, predmetli o'yin va harakatli faoliyat bilan almashinishi, guruh sharoitida yorug'lik va masofa talablari bajarilishi hamda ilovalarda shaxsiy ma'lumotlarni yig'ish funksiyalari o'chirib qo'yilishi modelning majburiy sharti sifatida ko'rsatildi. Monitoring uchun indikatorlar to'plami ishlab chiqildi: kognitiv indikatorlar (to'g'ri javoblar ulushi, topshiriqni bajarish strategiyalarining



xilma-xilligi), nutqiy indikatorlar (yangi so'zlarni qo'llash chastotasi, dialogdagi replika uzunligi), ijtimoiy indikatorlar (juftlikda ishlashda navbat kutish va kelishish holatlari), jarayon indikatorlari (mashg'ulotga jalb etilish va chalg'ishlar soni), hamda ota-ona ishtiroki indikatorlari (uy vazifasiga qayta aloqa, birgalikdagi o'yin protokoli). Ekspert baholash natijalarida mezonlar tizimining amaliyotga mosligi yuqori deb topildi. Ayniqsa, reklamasiz kontent, yoshga mos interaktivlik va kattalar vositachiligi bo'yicha bandlar eng muhim mezonlar sifatida belgilandi.



1-rasm: Maktabgacha ta'lim elektron resurslarni integratsiyalash

Olingan natijalar elektron materiallar va mobil ilovalarning o'zi emas, balki ularni qo'llash ssenariysi hamda didaktik moslashuv asosiy hal qiluvchi omil ekanini ko'rsatadigan ilmiy qarashlar bilan uyg'unlashadi. Xususan, erta yoshda raqamli resurslar "passiv iste'mol" shaklida emas, balki birgalikdagi muloqot va o'yin bilan boyitilgan holatda qo'llanganda rivojlantiruvchi samaraga ega bo'lishi haqidagi yondashuvlar modelning pedagogik-ssenariy qatlamida aks etdi. Shu bilan birga, mobil o'rganish bo'yicha tadqiqotlar ko'pincha maktab yoshiga qaratilgan bo'lib, maktabgacha yoshdagi bolalarda e'tiborning barqaror emasligi, o'yin faoliyatining yetakchiligi va sensor tajribaning ustuvorligi sababli integratsiya yanada ehtiyotkor hamda qisqa epizodli bo'lishini talab qiladi. Taklif etilgan mikrointegratsiya g'oyasi aynan shu farqni hisobga oladi. Ayrim adabiyotlarda gamifikatsiya elementlari motivatsiyani oshirishi ta'kidlanadi, ammo maktabgacha yoshda "mukofot"ning haddan tashqari ko'pligi maqsadni o'yinchoq rag'batga aylantirib qo'yishi mumkin. Shuning uchun natijalar rag'batlantirishning neytral va mazmunli shakllarini ustuvor qo'yishni taklif etdi. Bu esa, o'z navbatida, raqamli muhitda tarbiyachining metodik didi va tanlov mas'uliyatini kuchaytiradi.

Modelning nazariy ahamiyati shundaki, u didaktika, psixologik yosh xususiyatlari va me'yoriy-xavfsizlik talablarini yagona tizimga keltiradi hamda "resurs sifati"ni faqat kontent bilan cheklamay, pedagogik jarayonning tarkibiy qismi sifatida talqin qiladi. Amaliy ahamiyat esa ta'lim tashkilotida resurslarni inventarizatsiya qilish, tanlab olish, mashg'ulot konspektlariga kiritish hamda ota-onalar bilan shaffof kommunikatsiya o'rnatish imkonini beradigan aniq mezon va indikatorlar majmuasida namoyon bo'ladi. Ota-onalar bilan hamkorlik komponenti ayniqsa muhim, chunki uy sharoitida ilovalardan foydalanish nazoratsiz bo'lsa, ta'lim tashkilotidagi me'yoriy yondashuvlar samaradorligi pasayadi. Shu sababli haftalik tavsiya ssenariylari va qayta aloqa protokoli bolalar rivojlanishini uzluksiz qo'llab-quvvatlashga xizmat qiladi. Bu xulosalar maktabgacha ta'limda raqamli pedagogika bo'yicha metodik tavsiyalar yaratish zaruratini ko'rsatadigan ilmiy manbalar bilan hamohangdir.

Tadqiqotning cheklovlari shundan iboratki, u ko'proq konseptual modellash va ekspert baholashga tayandi. Turli hududlar, turli ijtimoiy sharoitlar va til muhitida qo'llash natijalarini keng qamrovli empirik sinovlar bilan solishtirish keyingi tadqiqotlar vazifasi bo'lib qoladi. Bundan tashqari, ilovalar bozori tez yangilanadi, shuning uchun mezonlar tizimi barqaror qolsa-da, konkret resurslar ro'yxati doimiy ravishda qayta ko'rib chiqilishi lozim. Kelgusidagi tadqiqotlarda learning analytics yondashuvlarini maktabgacha ta'lim sharoitiga moslashtirish, ya'ni ilova ichidagi xatti-harakat ma'lumotlarini pedagogik kuzatuv bilan etik me'yorlar asosida birlashtirish imkoniyatlarini ham tahlil qilish maqsadga muvofiqdir.

XULOSA

Tadqiqot maktabgacha ta'lim tashkilotida elektron o'quv materiallari va mobil ilovalarni qo'llash samara-dorligi resursning texnik yangiligi bilan emas, balki didaktik mosligi, pedagogik ssenariy sifatining aniqligi va me'yoriy-xavfsizlik talablari bajarilishi bilan belgilanishini asoslab berdi. Integratsion model uch qatlamli tuzilma sifatida taklif etilib, u elektron materiallarni tanlash mezonlari, foydalanishning to'rt tipik holati hamda raqamli faollikni tartibga soluvchi parametrlarni yagona ramkada birlashtirdi.

Monitoring uchun ishlab chiqilgan indikatorlar majmuasi kognitiv, nutqiy, ijtimoiy va jarayon ko'rsatkichlarini qamrab olib, tarbiyachiga natijani faqat yakuniy "to'g'ri javob"lar bilan cheklamasdan, o'rganish jarayonining sifatini ham baholash imkonini beradi. Natijada maktabgacha ta'lim amaliyotida raqamli resurslar o'yin va mulo-qotga tayangan rivojlantiruvchi muhitni kuchaytirishi, ota-onalar bilan hamkorlik esa bu ta'sirning barqarorligini ta'minlashi ko'rsatib berildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivoj-lantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. <https://lex.uz/docs/-3107036>
2. American Academy of Pediatrics. "Media and Young Minds". Pediatrics. Elk Grove Village: American Academy of Pediatrics, 2016. Vol. 138, No. 5.
3. Abdullaeva, M. Maktabgacha ta'limda raqamli pedagogika asoslari. Toshkent: Fan va texnologiya, 2022. 176 b.
4. G'ofurov, A., Jo'rayev, B. Maktabgacha ta'lim metodikasi. Toshkent: O'qituvchi, 2020. 320 b.
5. Сластёнин, В. А., Исаев, И. Ф., Шиянов, Е. Н. Педагогика. Москва: Академия, 2019. 608 с.
6. Vygotsky, L. S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Cambridge: Harvard University Press, 1978. 159 p.
7. Kukulska-Hulme, A., Traxler, J. Mobile Learning: A Handbook for Educators and Trainers. London: Routledge, 2013. 192 p.
8. Kucirkova, N. How and Why to Read and Create Digital Books with Children. London: UCL Press, 2018. 208 p.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №5(4)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.